

INTERNETSIZ BIR KUN: FOJIA YOKI NAJOT?

Sevinch Muxammadiyeva Zaripovna

O'zDJTU 2-bosqich talabasi

Bugungi raqamli texnologiyalar davrida internet kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib qolgan desak xato bo'lmaydi. Internet - bu dunyo bo'ylab milliardlab kompyuter va qurilmalarni o'zaro bog'lovchi global tarmoqdir. U bizga shunchaki bir nechta tugmalar bosish bilan kifoyalangan holda, yer sharining bu chekkasida turib, u chekkasidagi do'stimiz bilan bog'lanish va muloqot qilish, xohlagan mavzuimizda bizni qiziqtirgan savollarga soniyalar ichida javob olish, biror soha bo'yicha izlanishlar olib borishdan tortib, bo'sh vaqtimizni qiziqarli va mazmunli o'tkazish kabi holatlargacha katta imkoniyatlar yaratib bera oladi. Lekin shunday savol tug'iladi: agar bir kun internet butunlay o'chib qolsa, nima bo'ladi? Internetsiz hayot fojiami yoki aksincha, bu bizga ijobiy ta'sir qiladimi? Mana shu masalani chuqurroq tahlil qilish uchun internetning jamiyatdagi o'rni, uning yo'qligida yuzaga keladigan muammolar hamda imkoniyatlar haqida o'rganib chiqamiz.

Tasavvur qiling, ertalab uyqudan uyg'ondingiz va mobil telefoningizni tekshirib, Wi-Fi ishlamayotganini payqadingiz Avvaliga "Shunchaki texnik nosozlik bo'lsa kerak", deya qayta o'chirib, yoqasiz. Yo'q, foydasiz. So'ng mobil internetga ulanib, ma'lumotlar almashishini kutasiz. Yo'q, bugun internet ishlamaydi.

Dastlab, bu sizga noqulaylik tug'dirishi mumkin. Bu xuddiki qayerdadir nimadir buyumingizni unutib qoldirganlik hissini beradi. Sababi, internet odatiy yumushlarimizning asosiy elementi hisoblanadi. Ba'zilar buni fojia deb atashsa, boshqalar esa aksincha, buni hayotni jonlantirish va haqiqiy dunyo bilan bog'lanish uchun qulay fursat deb hisoblashadi.

Internetning hayotimizdagi o'rni shunchalik katta bo'lib qoldiki, ish va ta'lim, aloqa va axborot almashish, moliyaviy va iqtisodiy tizimlar kabi sohalarda bu kun haqiqiy fojiaga aylanishi turgan gap. Zamonaviy ish muhiti va ta'lim tizimi internetga bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda ko'plab kompaniyalar o'z faoliyatini masofaviy tarzda olib bormoqda. Ularning ish jarayonlari va komunikatsiya usullari internetga asoslangan bo'lib, elektron pochta orqali hujjatlarni yuborish, bank operatsiyalarini onlayn amalga oshirish kabi faoliyatlar xodimlar uchun qulaylik yaratib beradi. Bunday yondashuv biznesni yanada samarali va tezkor qiladi. Agar internet bilan uzilish ro'y bersa, bu tizimlar jiddiy ravishda buzilishi, natijada ko'plab kompaniyalar ishini to'xtatib qo'yishlari, mijozlar bilan aloqalar uzilishi va katta moliyaviy yo'qotishlar yuzaga kelishi mumkin.

Internetning ta'lim sohasida tutayotgan o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, aynan u orqali bu tizim kundan-kun rivojlanib bormoqda. Masofaviy o'qish, videodarslar, onlayn kutubxonalar, ilmiy izlanishlar va materiallarga erkin kirish imkoniyati ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. Bu nafaqat o'qituvchilar, balki talabalar uchun ham katta qulayliklar yaratadi. Masalan: talabalar o'z vaqtlarini erkin taqsimlab, kerakli ma'lumotlarga tezda ega bo'lishadi. Biroq, internetga ulanish imkoniyati bo'lmagan joylarda talabalar

uchun kerakli materiallarni topishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi, bu esa ta'lim sifatini pasaytirishi mumkin. Shuningdek, internetning ta'lim tizimidagi o'rnini shunchaki axborot almashinuvi bilan cheklanmaydi. U ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda, yangi bilimlarni o'zlashtirishda va global miqyosda malakali mutaxassislarni tayyorlashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Internet orqali talabalar nafaqat o'qish, balki jahon madaniyati, ilm-fan va texnologiyalarga oid yangiliklardan xabardor bo'lishlari mumkin.

Bu ularning dunyoqarashini kengaytiradi va o'zlarining sohalariga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

Yaqin kelajakgacha odamlar o'z fikrlarini, xatlarini boshqa kishilarga yetkazish uchun uzoq vaqt kutishar, ba'zi holatlarda ular bilan muloqot qilish imkonsiz ham edi.

Bugun esa texnologiyaning rivojlanishi bilan birgalikda ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar orqali bir zumda nafaqat yozma xabarlar almashish, balki onlayn videomuloqot qilish orqali to'gridan-to'g'ri insonlar bir-birlarini real vaqt rejimida birgina smartfon ekrani orqali ko'ra olish imkoniyati ham mavjud. Internet yo'qligi nafaqat insonlarga, balki ijtimoiy tarmoqlarga ham salbiy tomonga ishlaydi. M

isol uchun, 2021-yilda Facebook, WhatsApp, va Instagram platformalari butun dunyo bo'ylab bir necha soat ishlamay qolganida, kompaniya milliardlab dollarlar miqdoridagi yo'qotishlar bilan yuzlashgan. Bu internetning faqatgina kundalik hayotimizda emas, balki global iqtisodiyotda ham muhim vositaga aylanganidan xabar beradi.

Ammo, shuni unutmashimiz kerakki, tanganing doim ikkinchi tarafi bo'lganidek, yaxshi tommonning o'ziga xos yomon taraflari ham bor. Yuqorida internetsiz kunni fojia sifatida ko'rib chiqqan bo'lsak, endi qarashlarimizni internetsiz kunning ijobiy tomonlariga qaratamiz.

Afsuski, jamiyatning ko'p sonli qismi internetga haddan tashqari bog'lanib qolgan. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, yoshlar kuniga o'rtacha 7 soat vaqtini internetda o'tkazadi. Shu tariqa odamlar orasidagi yuzma-yuz muloqot va ijtimoiy aloqalar tobora kamayib bormoqda, ularning asosiy vaqtlari virtual olamda, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn suhbatlarda o'tadi. Internetsiz kun esa ularga real hayotga qaytishga, insonlar bilan yuzma-yuz muloqot qilishga, oiladagi muhit va ijtimoiy aloqalarni yaxshilashga yordam beradi. Bu insonlarni haqiqatan ham yaqinlashtiradi, bir-birlariga bo'lgan ishonch va mehrning ortishiga sabab bo'la oladi.

Bundan tashqari bir kun internetsiz qolish, tabiat bilan to'gridan-to'g'ri aloqada bo'lish, ochiq havoda sayr qilish va jismoniy faollik bilan shug'ullanish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa nafaqat sog'liqni mustahkamlash, balki ruhiy holatni yaxshilash, tinchlanish va ichki balansni me'yorida ushlay olishga katta hissa qo'shadi. Odamlar doimiy axborot oqimi, ijtimoiy tarmoqlar va yangiliklar bilan to'ldirilgan dunyoda yashashlari ularning ongini charchatib, stress va ichki tinchlikni yo'qotishga olib keladi. Internetdan uzoqlashish esa inson miyasini ortiqcha va keraksiz ma'lumotlardan tozalaydi, diqqatni jamlashga yordam beradi. Odamlar ijodiy mashg'ulotlarga ko'proq vaqt ajratishga, kitob o'qish, rasm chizish va yangi g'oyalar ustida ishlashga e'tibor qarata boshlaydilar. Inson bora-bora ichki salohiyatini kashf qiladi, dunyoga yangi va o'zgacha asarlar taqdim etishga o'zida ilhom va harakat topa oladi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, yoshi katta insonlar internetni zararli deb hisoblash foizi yuqori. Sabab tariqasida ular avvallari internet bo'lmagan davrda ham yaxshi yashashganini, internetda vaqtni o'tkazish behuda ekanligini aytadilar. Bu qaysidir ma'noda to'g'ri, har narsaning meyori bo'lgani kabi, internetdan faqat foydali va kerakli bo'lgan ma'lumotlar va faoliyatlar uchun foydalanish hammamiz uchun yaxshi, albatta. Ammo bugungi ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda, internetsiz yashay olishni tasavvur qilish qiyin. Albatta buning imkoni bor, ammo internetning yordamida ancha osonroq va samaraliroqdir. Biz internetni qandaydir fojia yoki falokat sifatida emas, shunchaki kundalik hayotimizda doimiy foydalanadigan vositamiz sifatida qabul qilishimiz maqsadga muvofiq. Undan qanday foydalanish esa har kimning o'z ixtiyorida.